

**O'ZBEK ETNOMILLIY TAFAKKURIDAGI DINIY E'TIQODLAR VA
MAROSIMLARNI MAFKURAVIY JIHATDAN KAMSITISH SIYOSATINING
OQIBATLARI**

Turapova Mohidil Turdiyevna

Termiz davlat universiteti,

Jahon tarixi kafedrası t.f.b.f.d., PhD

Email: mohidilturapova76@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17919607>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sovet davrida O'zbekistonda diniy e'tiqodlar va marosimlarning mafkuraviy asosda kamsitilishi, diniy institutlarning cheklanishi hamda bu jarayonlarning o'zbek milliy tafakkuri va ma'naviy hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Sunnat marosimi, nikoh va dafn kabi diniy urf-odatlarining taqiqlanishi, diniy bayramlarning bostirilishi va diniy ta'limning yo'q qilinishi natijasida jamiyatda yuzaga kelgan "mafkuraviy ikkiyuzlamachilik", diniy savodsizlik va identitet zaiflashuvi jarayonlari ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqot sovet mafkurasining diniy-ma'naviy qadriyatlarga qarshi olib borgan siyosiy kampaniyalari uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy oqibatlarga sabab bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Sovet davri, diniy e'tiqodlar, mafkuraviy tazyiq, sunnat marosimi, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, diniy ta'lim, diniy savodsizlik, milliy identitet, ma'naviy meros, repressiya, ateizm.

Аннотация. В данной статье анализируется идеологическое ущемление религиозных верований и обрядов в Узбекистане в советский период, ограничения деятельности религиозных институтов и их влияние на национальное мышление и духовную жизнь узбекского общества. Исследуются запрет обрядов, таких как суннат, никах и погребальная церемония, ограничение религиозных праздников, ликвидация религиозного образования и возникновение феноменов «идеологического двуличия», религиозной неграмотности и ослабления идентичности. Исследование показывает, что идеологические кампании советской власти против религиозно-духовных ценностей привели к долгосрочным социально-культурным последствиям.

Ключевые слова. Советский период, религиозные верования, идеологическое давление, обряд сунната, Рамазан хайит, Курбан хайит, религиозное образование, религиозная неграмотность, национальная идентичность, духовное наследие, репрессии, атеизм.

Abstract. This article analyzes the ideological suppression of religious beliefs and rituals in Uzbekistan during the Soviet period, the restrictions imposed on religious institutions, and their impact on the national consciousness and spiritual life of the Uzbek people. It examines the prohibition of rituals such as circumcision, marriage and funeral ceremonies, the suppression of religious holidays, and the elimination of religious education, which led to the emergence of "ideological duality," religious illiteracy, and the weakening of identity. The study demonstrates that the Soviet ideological campaigns against religious and spiritual values resulted in long-term socio-cultural consequences.

Keywords. Soviet period, religious beliefs, ideological pressure, circumcision ritual, Ramadan Eid, Eid al-Adha, religious education, religious illiteracy, national identity, spiritual heritage, repression, atheism.

O'zbek xalqining ma'naviy dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlar va marosimlari asrlar davomida islom dini bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanib kelgan. Ammo XX asrning boshlaridan boshlab sovet tuzumi tomonidan olib borilgan ateistik siyosat ushbu qadriyatlarning tabiiy rivojini izdan chiqarishga qaratilgan edi. Diniy e'tiqodlar "xurofot", marosimlar esa "qoloqlik" sifatida talqin qilinib, ularni jamiyat ongidan siqib chiqarish maqsad qilingan. Bu jarayon o'zbek etnomilliy tafakkurining bir qator qatlamlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Sovet hokimiyati diniy e'tiqodlarni jamiyatning rivojiga to'siq deb baholab, ateistik siyosatni asosiy mafkuraviy yo'nalishlardan biriga aylantirdi. Sovet hokimiyati diniy e'tiqodlarni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy rivojiga to'siq bo'luvchi, "eskicha tafakkur"ning mahsuli sifatida talqin qilgan va shu bois ateistik g'oyalarni davlat mafkurasining markaziga qo'yar edi. Bu siyosat nafaqat diniy amaliyotlarni, balki xalqning ming yillik ma'naviy merosini ham izdan chiqarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi orqali amalga oshirildi.

Birinchidan, masjid va madrasalarning yopilishi diniy hayotning eng muhim bo'g'inini yo'q qilishga olib keldi. Ko'plab tarixiy obidalar ma'muriy binolarga aylantirildi, ayrimlari esa butunlay buzib tashlandi. Natijada dinning jamoaviy shaklda amalga oshirilishi, marosimlar o'tkazilishi hamda diniy ta'lim berilishi uchun ijtimoiy makon yo'qolib bordi.

Ikkinchidan, diniy ta'lim tizimining bekor qilinishi avlodlar o'rtasidagi ilmiy-ma'rifiy uzviylikni keskin ravishda uzdi. Madrasalar faoliyatining to'xtatilishi ulamolarni yangi avlod bilan aloqasiz qoldirdi, shuningdek, Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf kabi sohalarining o'rganilishiga to'sqinlik qildi. Bu esa o'zbek jamiyatida diniy savodsizlikning kuchayishiga zamin yaratdi.

Uchinchidan, ulamalarning ta'qib qilinishi diniy elitaning yo'qolishiga olib kelgan omillardan biri bo'ldi. Diniy yetakchilar "xalq dushmani", "reaksion kuchlar" sifatida tamg'alandi, ko'plab ulamolar qamoqqa tashlandi, surgun qilindi yoki faoliyatdan chetlashtirildi.

Natijada jamiyatning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynagan diniy arboblarning qatlamining uzluksizligi buzildi.

To'rtinchidan, diniy marosimlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi an'anaviy hayot tarzini chekladi. Nikoh faqat fuqarolik organlarida qayd etilishi shart qilindi; sunnat-to'ylar "qoloqlik" deb baholandi; dafn marosimlari esa qat'iy qoidalarga bo'ysundirilgan holda o'tkazilishi talab qilindi. Bu cheklovlar diniy marosimlarning ma'naviy mazmunini susaytirib, marosimlar xalq orasida yashirin shaklda davom etishiga olib keldi.

Beshinchidan, diniy risolalar va diniy mazmundagi adabiyotlarni tarqatishning taqiqlanishi millatning diniy-ma'rifiy dunyoqarashini yanada toraytirdi. Qur'onning nashri cheklab qo'yildi, diniy-ilmiy asarlar yashirin ravishda ko'chirilgan yoki o'qilgan, bu esa diniy bilimning rasmiy muhitdan butunlay chetlashtirilishiga sabab bo'ldi.

Ushbu jarayonlarning barchasi faqat diniy hayotga emas, balki milliy tafakkur, ma'naviy identitet va madaniy merosga ham jiddiy zarba bo'ldi. Diniy qadriyatlardan uzilish natijasida jamiyatda qadriyatlar bo'shlig'i vujudga keldi, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik susaydi va bir qator qadimiy marosimlarning mazmuni o'zgardi yoki soddalashtirildi.

Mafkuraviy bosim kuchaygan sharoitda xalqning diniy-ma'naviy qadriyatlari butunlay yo'qolib ketmadi, aksincha, ular jamiyatning ichki qatlamiga, yashirin ijtimoiy makoniga ko'chib o'tdi. Sovet tuzumining qat'iy nazorat mexanizmi, ateistik targ'ibot va diniy marosimlarni cheklash siyosati natijasida xalq ongida ikki pog'onali ma'naviy-madaniy tizim shakllandi. Birinchi qatlam — rasmiy ong, ya'ni sovet mafkurasining talablariga moslashgan tashqi ong edi.

Bu qatlamda diniy e'tiqodlar inkor qilinishi, marosimlar "qoloqlik", "xurofot" sifatida talqin qilinishi talab etildi. Davlat tashkilotlari, o'quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari ana shu rasmiy ongni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qildi. Natijada jamoat joylarida diniy marosimlarni ochiqchasiga bajarish yoki diniy e'tiqodni namoyish qilish xavfli bo'lib qoldi.

Ikkinchi qatlam — norasmiy ong bo'lib, u xalqning asrlar davomida shakllangan an'analarini, diniy marosimlarini va ma'naviy qadriyatlarini yashirin tarzda saqlab qolish imkonini berdi. Bu ong oilalar, mahalla, qarindosh-urug'chilik doirasi kabi yopiq ijtimoiy makonlarda saqlanib qoldi. Ramazon va Qurbon hayitlarini yashirincha nishonlash, sunnat marosimlarini "oddiy yig'in" sifatida o'tkazish, dafn marosimlarida diniy rasm-rusumlarni imkon qadar saqlash kabi holatlar aynan mana shu norasmiy ongning mahsuli edi. Bu qatlam milliy o'zlikning eng muhim tayanchi sifatida yashirin shaklda bo'lsa-da, xalqning o'zligini unutmasligiga xizmat qildi.

Ushbu ikki ong o'rtasidagi tafovut esa jamiyatda chuqur ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, rasmiy siyosatga mos kelish zarurati mavjud bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning o'z tarixiy-madaniy merosiga sodiqligi saqlanib qoldi. Natijada shaxs va jamiyat hayotida "bir narsaga ishongan holda boshqasini ko'rsatish" odati paydo bo'ldi. Shu tariqa, sovet mafkurasi diniy amaliyotni to'liq yo'q qila olmagan bo'lsa-da, jamiyatning ma'naviy hayotini ikki qutbli tizimga ajratdi, ongda uzilishlar, qadriyatlar tizimida esa murakkab psixologik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi. Sovet hokimiyatining diniy marosimlarga doir siyosati jamiyat hayotining eng nozik va qadimiy qatlamlariga bevosita aralashdi. Xususan, diniy nikohning "noqonuniy" deb e'lon qilinishi va fuqarolik nikohi — ZAGS (Запись актов гражданского состояния) nikohining majburiylashtirilishi oilaning an'anaviy me'yorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Musulmon jamiyatida oila qurish faqat huquqiy emas, balki ma'naviy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan diniy marosimlar orqali mustahkamlanar edi. Sovetlarning ushbu siyosati nikohning diniy-huquqiy mazmunini toraytirib, uni faqat huquqiy shakldagi rasmiy jarayonga aylantirishni ko'zlagan edi.

Dafn marosimlarida imomlar ishtirokini cheklash ham jamiyat ongiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Islomda dafn marosimi nafaqat diniy urf-odat, balki o'lim va hayot falsafasining davomiyligini ifoda etuvchi muqaddas amaliyotdir. Sovetlarning bu boradagi taqiqlovchi siyosati diniy amaliyotning eng asosiy ko'rinishlarini ham nazorat ostiga oldi. Natijada quyidagi oqibatlar kuzatildi:

- Marosimlarning ma'naviy mazmuni qisqardi. Nikoh va dafn marosimlarining diniy-falsafiy mazmuni qisqartirilishi ularning jamiyat hayotidagi tarbiyaviy va ma'naviy funksiyalarini zaiflashtirdi. Marosimlar rasmiylashtirib bordi, diniy mazmun esa ikkinchi darajaga tushdi.

- Diniy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishi izdan chiqdi. Diniy nikoh, dafn va boshqa marosimlar orqali uzatiladigan ko'plab diniy axloqiy tushunchalar — mas'uliyat, poklik, halollik, sabr, taqvo kabi qadriyatlar uzviy ravishda davom etmay qoldi. Natijada ma'naviy merosda uzilish yuz berdi.

- Diniy marosimlarning yashirin shaklda bajarilishi kuchaydi. Rasmiy taqiqlarga qaramay, xalq o'z e'tiqodidan voz kechmadi. Marosimlar yashirin tarzda, ko'pincha mahalla yoki oila doirasida o'tkazila boshladi. Bu holat rasmiy davlat idoralari bilan xalqning real amaliyoti o'rtasida uzilishlarni kuchaytirib, ijtimoiy "soya marosimlar" tizimini shakllantirdi.

Sovet davrida Ramazon hayiti va Qurbon hayitining ochiq nishonlanishi qat'iy man etildi. Bu bayramlar "diniy asotirning qoldig'i", "mehnat unumdorligiga halal beruvchi marosimlar" sifatida talqin qilindi. Ularning o'rniga: 1-may — Mehnat bayrami, 7-noyabr — Oktyabr inqilobi kuni, 8-mart, 23-fevral, 9-may kabi davlat bayramlari keng targ'ib qilindi.

Hatto maktab va korxonalarda diniy bayram kunlarida qatnashishni nazorat qiluvchi yig'ilishlar tashkil etildi.

Sovet siyosati natijasida diniy ta'lim tizimi butunlay barbod bo'ldi. Masjidlar, maktablar, madrasalar yopilib, diniy ilmlar merosini uzluksiz yetkazib keladigan ulamolar sinfi ta'qib qilindiki, natijada bir necha avlod: arab yozuvidagi diniy matnlarni o'qiy olmaslik, islomning asosiy tushunchalarini bilmaslik, marosimiy amallarni faqat an'anaviy-tashqi ko'rinish sifatida qabul qilish holatiga tushib qoldi. Bu jarayon diniy ongning yuzakilashuviga, marosimlarning mazmundan ajralishiga va diniy bilimga emas, balki eshitgan-gapga asoslangan tasavvurlar shakllanishiga olib keldi.

Mafkuraviy bosim natijasida an'anaviy islom qadriyatlari chetga surilgan muhitda jamiyatda ma'naviy bo'shliq paydo bo'ldi. Sovet tuzumi qulagach, ushbu bo'shliqni: chetdan kirib kelgan radikal oqimlar, mahalliy an'anaviy islomga zid bo'lgan mafkuraviy ta'sirlar, diniy savodsizlikdan foydalanadigan guruhlar tezlik bilan egallashga harakat qildi. Bu holat: jamiyatning ruhiy barqarorligiga putur yetkazdi, yoshlar ongida chalkash diniy tasavvurlar shakllanishiga sabab bo'ldi, milliy diniy an'analar bilan zid bo'lgan talqinlarning kengayishiga imkon yaratdi. Shuning uchun mustaqillikdan keyingi islom an'analarini tiklash jarayoni aynan shu ma'naviy bo'shliq bilan kurashishga qaratildi. Urf-odatlar, marosimlar va diniy amaliyotlar o'zbek xalqining etnomilliy identitetida markaziy o'rin tutadi. Sovet mafkurasi esa aynan shu asosiy poydevorni nishonga oldi.

Sovet hokimiyatining diniy e'tiqodlar va marosimlarga nisbatan olib borgan mafkuraviy siyosati o'zbek xalqining diniy-ma'naviy qadriyatlariga chuqur ziyon yetkazdi. Masjid va madrasalarning yopilishi, diniy ta'limning tugatilishi, marosim va bayramlarning taqiqlanishi milliy o'zlikni tashuvchi asosiy institutlarning izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Mafkuraviy bosim natijasida diniy urf-odatlar yashirin shaklga o'tdi, jamiyatda rasmiy va norasmiy ongning ajralishi — "mafkuraviy ikkiyuzlamachilik" holati shakllandi. Mustaqillik yillarida diniy erkinlik qayta tiklangan bo'lsa-da, sovet davridagi siyosatning oqibatlar — diniy savodsizlik, an'anaviy qadriyatlarning uzilishlari va ma'naviy bo'shliq — hali ham jamiyatning ayrim qatlamlarida sezilmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, diniy-milliy qadriyatlarni tiklash jarayoni tarixiy adolatni tiklash va milliy identitetni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дин – халқ учун афюндир // Худосизлар. – 1932. – № 5–6. – Б. 14–17; Бухоро ҳақиқати. – 1938. – 23 октябрь. – № 151.
2. Машхур Нумонхон эшон қора курсида жавоб берди // Қизил Ўзбекистон. – 1926. – 26 апрель. – № 96.
3. Туркистоннинг бу кунги ҳоли // Ёш Туркистон. – 1930. – № 7–8. – Б. 48.
4. Мактабларда динга қарши тарбия // Худосизлар. – 1928. – № 7–8. – Б. 35–39.
5. Мактаб болалари орасида динга қарши тарбия // Худосизлар. – 1929. – № 2. – Б. 45–47.
6. Ёшлар орасида динга қарши тарғиботни кучайтирайлик // Худосизлар. – 1932. – № 5–6. – Б. 12–13.

7. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2(10), 568-576.
8. Jumayev, M. (2024). SURXONDARYO VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLAR VA ULARNING TAHLILI. *Modern Science and Research*, 3(12), 953-955.
9. Jumayev, M. (2023). Sources of Historical Names and Scientific Basis of Study. *Modern Science and Research*, 2(10), 568-576.